

HAZRAT SAYYID AMIR KULOL FAOLIYATI VA IJODI

Ilmiy rahbari: X.U.Samatov

Choriyeva Azizabonu Akmal qizi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali Telekommunikatsiya texnologiyalari va

kasb ta'limi fakulteti 23-04 guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hazrat Sayyid Amir kulol hayotlarini, siyratlarini, u insonning ajoyib xulq-atvorlarini o'rganishni, va hozirgi zamonga foydali bo'lgan tarbiyaviy va madaniy kitoblari tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: tavba, hadis, fiqh, ma'rifat, tasavvuf.

Xoja Sayyid Amir Kulol, xalq orasida Kalon ("Baland") deb nom chiqargan hanafiyalar e'tiqodining diniy olimi, Bahovuddin Naqshbandiyning so'fiy va diniy ustoz bo'lgan. Sayyid Amir Kulol, 1281-yilda Kogon tumanining Suxor (hozirgi

Yangi-hayot qishlog'i) qishlog'ida, kulollar oilasida tug'ilgan. Afsonaga ko'ra, "U baland bo'yli, yelkalari keng odam edi. Chimirilgan qoshlari ostidan o'tkir ko'zlari qarab turar, terisi esa quyoshda toblangan, bug'doy rang edi. Yuzining chetlari oqargan soqol bilan qoplangan, o'zini kamtar va muloyim tutar edi. So'zlashganda e'tiroz bildirmas, o'jarlik qilmas edi. Yoshligida kurash bilan shug'ullanganligi uchun jismonan yetuk, mushakdor ko'rinishga ega edi. Dindorligiga kelsak, uning haqqoniyligiga shubha qiladigan odamning o'zi yo'q edi, chunki u o'zini bilimli va shariatdagi tariqat va ma'rifatni o'zida jam qilgan edi".¹

Sayyid Amir, yoshligidan kurash bilan shug'ullanishni boshlagan. Kurash tufayli, 15 yoshli Sayyid Amir o'zining kelajakdagi ruhiy ustoz, o'sha kuni xudoning irodasi bilan musobaqaga kelgan shayx Muhammad Bobo Sammosiy bilan tanishdi. O'ziga hamroh bo'lib kelgan shogirdlarining noroziligiga javoban, u barchaga eshittirib shunday degan edi: "Bu sohada bir erkak borki, uning inoyati bilan ko'plab dinga sodiq odamlar to'g'ri yo'lni topadi". Shunda u bo'lajak ustoziga qaradi, ularning nigohlari to'qnashdi, bir soniya ichida ular o'rtasida so'zsiz suhbat bo'lib o'tdi, shundan so'ng Muhammad Bobo Sammosiy o'rnidan turdi va hech narsa demasdan ketdi. Ertasi kuni Amir Kulol uning yoniga borib, shayxning yangi shogirdi bo'lish uchun ruxsat so'radi. Yigirma yil davomida, Suxardan Sammosigacha bo'lgan 25 km masofani bosib o'tib Shayxga xizmat qildi. Shundan beri u kurashni tark etdi va boshqa hech qachon jamoatchilik oldida chiqish qilmadi.²

¹ <https://uz.m.wikipedia.org> saytidan.

² <https://religions.uz> saytidan.

Sayyid Amir o'zining ma'naviy kamolotiga erishib shayx Muhammad Sammosiyning to'rtinchi o'rinbosari bo'lganida, hurmatli Shayx unga o'zining yosh shogirdi "ma'naviy o'g'li"- keyinchalik eng mashhur so'fiylik tariqatlaridan biri- "Xo'jagon Naqshbandiya"ning asoschisi bo'lib yetishgan Bahovuddin

Naqshbandiyni ishonib topshirgan. O'zining ma'naviy-ma'rifiy faoliyati davomida Sayyid Amir Kulol, Xoja Bahovuddin Naqshband, Mavlono Orif Deggaroniy, Xoja Darzuniy, Shamsuddin Kulol, Mavlono Jamoliddin Keshiy kabi, yuzlab shogirdlarni tarbiya qildi. Yilnomalarga ko'ra, Sayyid Amir Kulol Amir

Temurning 1363-yilda uchrashgan birinchi piri bo'lgan. Sayyid Amir Kulolning ko'plab izdoshlari bo'lib ularning orasida keyinchalik so'fiylarga aylanib otasining yo'lini davom ettirgan to'rt o'g'li ham bor edi. U shogirdlarini qat'iy ma'naviyat bilan tarbiyalagan va shogirdlarini Muhammad Payg'ambarimizning odamlar har kuni qiladigan kichik gunohlar yig'ilib katta gunohlarga aylanishi va ularni do'zaxga yetaklashi to'g'risidagi so'zlarini misol keltirib kichik gunohlardan qaytargan.³

Amir Kulolning to'rtta o'g'li bo'lib, ularning ta'lim va tarbiyasini, manbalarda aytilganidek, o'zi tarbiyalagan to'rt nafar vorisga ishonib topshirgan. O'g'illari Burhoniddin, Hamza, Amirshoh va Umar bo'lgan. Burhoniddinning ta'lim va tarbiyasini Naqshbandga, Hamzani o'z o'rniga ega bo'lgan Orif Deggaroniyga, Amirshohni Mavlono Yodgorga, Umarni tarbiyalashni Jamoliddin

Dehistoniya topshirgan. Maqbara Buxorodan 25 km shimolda, Suxor qishlog'ida joylashgan. Hagiografiyalardan birida, shuningdek, "Tuzukoti Temuriy" apokrifiy asarida yozilishicha, Amir Kulol Amir Temurga duo qilib, uning buyuk kelajagini bashorat qilgan. Avliyoning bu ishi, ayniqsa uning shogirdi Bahouddin Naqshbandning shuhrati Amir Kulol dafn etilgan joyning shuhrat qozonishiga katta hissa qo'shgan. Biroq, uning qabri ustida biron bir muhim bino qurilmagan. XIX asr boshidagi masjid butunlay vayron qilingan. Mustaqillikning dastlabki yillarida

O'zbekiston hukumati tomonidan avliyo maqbarasi to'liq restavratsiya qilinib, yirik memorial majmua barpo etilgan. Olimning qabri ustiga ikki gumbazli qabr o'rnatilgan. Asosiy dafn xonasi kufiy yozuvlari bilan bezatilgan bo'lsa, ikkinchi xona figurali toshlar bilan bezatilgan. Shu bilan birga, darvoza, masjid, ziyoratchilar uchun xonadonlar, marosimlar uchun xonalar, sakkiz qirrali hovuz, balandligi 10,5 m bo'lgan minora qurilib, uning atrofida sayqallangan g'ishtlar va marmar narvonlar bilan qoplangan yo'llar bilan bog' yaratilgan. Darvozalarning yog'ochdan yasalgan kanvaslari buxorolik hunarmandlarning o'ymakorlik namunalari bilan bezatilgan. Sayyid Kulol, 90 yil umr ko'rib, 1370 -yilning noyabrda vafot etgan.⁴

Hazrat Sayyid Amir Kulol "Maqomoti Amir Kulol" kitobida "Sayyid Amir

³ Ozod Mo'min Xo'ja Hazrat Said Amir Kulol (tarixiy voqeanomalar).-T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyotmatbaa birlashmasi, 2012.-176 b.

⁴ <https://meros.uz> saytidan.

Kulol” ning tarixi to'liq bayon qilingan. Bu kitobning muallifi Shahobiddin Amir Kulolning chevarasi, ya'ni Amir Kulolning Hamza ismli o'g'lining nevarasi (qizidan). Amir Kulol “sayyidlar”dan, ya'ni payg'ambar Muhammadning urug'laridan. Otasi Amir Hamza bo'lib, Hijozdan (hozirgi Saudiya Arabistoni)

Buxoroning Afshona (Peshku tumani) qishlog'iga ko'chib kelgan. “Majma alansob val ashjar” shajara qo'lyozmasi muallifi Xo'ja Abdulqodir ibn Muhammad Amin ta'kidlaganidek, payg'ambar Muhammaddan Sayyid Amir Kulolgacha bo'lgan shajarasi quyidagicha bo'lgan:

1. Muhammad;
2. Bibi Fotima va Imom Ali ibn Abu Tolib;
3. Husayn;
4. Zaynulobidin;
5. Muhammad al-Boqir;
6. Jafar as-Sodiq;
7. Muso al-Qosim;
8. Ali ar-Rizo;
9. Muhammad at-Toqiy;
10. Ali al-Hadiy;
11. Hasan al-Askariy;
12. Sayyid Ali Akbar ;
13. Sayyid Faxriddin Muhammad;
14. Sayyid Amir Naqib Husayn;
15. Sayyid Abdulloh Ali ;
16. Sayyid Amir Mahmud Husayn Rumiyy ;
17. Sayyid Amir Burhoniddin ;
18. Sayyid Shabon Husayn ;
19. Sayyid amir Qosim Jafar ;
20. Sayyid Zaynulobiddin Hasan;
21. Sayyid Abdulloh ;
22. Sayyid Sirojiddin Ibrohim ;
23. Sayyid Jaloliddin Hamza ;
24. Sayyid Amir Kulol ;⁵

Hazrat Sayyid Amir Kulol haqida bir afsona

Bu inson bir kuni qishlog'idagi maydonda kurash tushayotgandi. Uni ko'rgan hamqishloqlari malomat qila boshladilar. -Qaranglar, shunday bilimmi va obro'li yigit bid'at ish ish bilan shug'ullanayapti!.. Hoy, Amir Kalon! Sendek yigitga

⁵ <https://ilmlar.uz> saytidan.

shu ish loyiqmi?! O'zingga yarashadigan ish qilsang bo'lmaydimi? Bu so'zlarni eshitgan Amir Kalon kurash tushishdan to'xtadi. Davradagi odamlarga qarab chiqqandi, barcha tomoshabinlarni uyqu bosib, tush ko'ra boshladilar. "Davradagilarning oyoqlari gunoh botqog'iga botgan emish. Ming urinib, tirishsalar-da, oyoqlarini botqoqdan tortib ololmayotganmishlar. Bu botqoqdagilarning hammasi – do'zaxiydir, degan nido kelayotganmish. Shu damda Amir Kalon kelib, botqoqlik uning oyoqlari tagidan qochayotgan emish. U navbatma-navbat qo'l cho'zib, bu yerdagilarning barini tortib olibdi". Jamoa uyg'onib, tushimmi-o'ngimmi, degandek, bir-biriga boqsa, Amir Kalon -Hozirgi ko'rgan tushingiz to'g'ri tush! Mendek kimsalar haqida yomon xayollarga bormang va ularning ishini rad etmang! Chunki siz asl haqiqatdan bexabarsiz!

Haloyiqqa o'z fikrlarini g'ayritabiiy va ko'rgazmalik qilib yetkazgan Amir

Kalon raqibiga yuzlanib yana kurashga tutindi. Bu g'aroyib hodisadan hang-mang bo'lgan tomoshabinlar bu yigitning xislatiga tan berdilar. Shu voqeadan keyin Suxor qishlog'ida hech kim Amir Kalonni kurash tushgani uchun malomat qilishga botinmaydigan bo'ldi.

Mazkur afsona Amir Kalon deb ism berilgan, butun dunyoga esa Hazrat

Sayid Amir Kulol nomi bilan ma'lumu-mashhur inson haqida edi. Yosh Amir

Kalon birinchi ustozini Hazrat Sayyid Ahmad Otadan Haqqa yetishish zinalarini, ya'ni: birinchisi - shariat; ikkinchisi - tariqat; uchinchisi - haqiqat va to'rtinchisi ma'rifatni Olloh ato etgan idroki bilan o'rgandi va faqat o'rgandi emas, boshlang'ich tasavvuf ilmidan ham xabardor bo'ldi. So'ngra Romitan yaqinidagi Samos qishlog'ida tug'ilgan Hazrat Xoja Muhammad Bobo Samosiydan yanada kengroq ilm o'rgandi. So'ngra otasi kulol - Amir Hamzadan hunar o'rgandi. U yasagan sopol laganlari-yu, kosa va ko'zalari otasinikidan qolishmasdi. Qo'li tekkan mahsulotlar bozorga borishi bilan tez sotilib ketar, bu esa Amir Hamzaning yanada kattaroq ishtiyoq va mamnuniyat bilan kasbining barcha sir-asrorlarini o'g'liga o'rgatishga sabab bo'lardi.⁶

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, 1370- yilda vafot etgan Hazrat Sayyid Amir

Kulolning valiylik darajasi juda yuksak bo'lgani aytiladi. U hech qachon o'tda kuymagan. Hattoki uning kiyib yurgan libosu kiyimlari ham aslo yonmagan.

Ba'zan esa, Hazratni haqorat qilgan shaxslar jazo topganlar. Bu holatlar Amir

Kulolning aqliy va ruhiy istagisiz ro'y bergan. Yuzdan ortiq shogir yetishtirgan

Hazrat Sayyid Amir Kulolning shogirdlari orasida eng mashhuri Bahouddin

Naqshband hazratlari hisoblanadi. Bu insonning to'rtta o'g'li bo'lgani tildan-tilga o'tib kelmoqda. Biroq, ulardan ikkitasining qabri noma'lum. Bittasi Turkiyaga ketgani va kenja o'g'il Saidiy Umar Sohirqiron Amir Temurning vaziri bo'lgani hamda Kabri Samarqandda ekani haqida ayrim manbalarda keltirilgan.

⁶ <https://uza.uz> saytidan.

Ayni vaqtda Kogon tumanida “Sayyid Amir Kulol” majmuasida ming nafar namozxona mo‘ljallangan jome masjid, 100 o‘rinli tahoratxona, hojatxona, kulolchilik ustaxonasi va mehmonxona qurilmoqda. Shuningdek, majmua hududida yo‘laklar yotqizish, ko‘chatlar ekish, bog‘dorchilik, ayvonlar qurish va boshqa obodonlashtirish ishlari davom etmoqda.⁷

Hozirgi kunda, avliyo so‘fiy dafn etilgan joy, Buxoro viloyatining Kogon tumanida joylashgan bo‘lib, u yerda maqbara, juma masjidi, minora, kichik hovuz va ulkan bog‘dan iborat go‘zal yodgorlik majmuasi barpo etilgan .

Xulosa o‘rnida ta’kidlab o‘tish kerakki, ulug‘ bobokalonimiz butun umrini o‘z qishlog‘ida o‘tkazgan. Biror marotaba uzoq safarlarga yoki haj ziyoratiga borgan emas. Lekin u kishining islom va diniga oid fikrlari qarashlari butun musulmon olamida keng tarqalgan. Ular hanuz o‘z mavqeini yo‘qotgan emas. Chunonchi, diniy ta’limotni uzoqdan emas, oldimizda Chunonchi, diniy ta’limotni uzoqdan emas, oldimizda oqayotgan “ummon” tubidan izlash maqsadga muvofiqdir. O‘zbekiston- ulug‘ avliyolar Vatani. Bu erda buyuk so‘fiy darg‘alar yashagan va sof islomiy ta’limot hamda uning ma’rifatini tarqatgan. Manbalarda yetti piri komil payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vassallamdan boshlangan “oltin silsila”ning davomchilari sifatida e’tirof etilgan. Ular ko‘ngilni nafsu- hirsdan poklash, halol mehnat qilib umr kechirish, Allohni jon-dildan sevish g‘oyalarini targ‘ib qilgan. Ushbu aziz-avliyolarning asarlari, qilgan ishlari zamonlar osha odamlarni tarbiyalab, ularga dinu-diyonat, odob-axloq, ezgu so‘z va amaldan saboq berib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Ibrohimov. Toshkent, “ O‘zbekiston milliy ensiklapediyasi “ nashriyoti 2006y.
2. G.Navro‘zova. N.Safarova. Amir Kulol va Bahovuddin Naqshbandning tasavvufiy dunyoqarashlari. Buxoro, “Buxoro” nashriyoti, 1996 y.
3. Ismoilov S.T. Naqshbandiya tariqatining tasavvuf taraqqiyotidagi o‘rni .
4. Jo‘shon M.A. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. –T.: Cho‘lpon, 2000, -80 b.
5. Ражабов Қ, Иноятов С.. *Бухоро тарихи*. Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2016- y.-460 bet.
6. <https://uzhurriyat.uz>.
7. <https://uz.m.wikipedia.org> .
8. <https://meros.uz>

⁷ <https://uzbekistan.travel> saytidan.